

60540100 – Matematika ta’lim yo’nalishi uchun

1-kurs

“Dastrlash asoslari” fanidan savollar

1. Interpretator va kompilyatorlar
2. C++ dasturlash muhiti
3. C++ standart kutubxonalar
4. C++ tilining alfaviti
5. C++da berilganlarning turlari
6. C++ tilining tayanch turlari
7. C++ tilinda arifmetik amallar
8. C++ tilinda o’zlashtirish amallar
9. C++ tilinda taqqoslash amallar
10. C++ tilinda mantiqiy operatorlar
11. Sonlarni boshqa turga keltirish funksiyalari
12. Konsolda kiritish chiqarish funksiyalari
13. C++da boshqarish konstruksiyalari: shart operatori
14. C++da boshqarish konstruksiyalari: while operatori
15. C++da boshqarish konstruksiyalari: for operatori
16. C++da boshqarish konstruksiyalari: Switch/case operatori
17. C++ tilida funkciyalar
18. Fayllar. Fayllar bilan ishlash funksiyalari
19. Matematik kutubxona
20. Matn va satrlar bilan ishlash
21. Satrlar bilan ishlovchi asosiy funksiyalari
22. Matematik kutubxonaning asosiy funksiyalari
23. binar fayllar bilan ishlash
24. C++da obektlar
25. C++ tilida sinflar

26. C++ tilida ikkilik, sakkizlik va o'n oltilik sanoq tizimidagi sonlar
27. Satrlarni taqqoslash
28. Sikldan chiqish. break va continue operatorlari
29. Funksiya parametrlari va funksiyadan qiymat qaytarish
30. O'zgaruvchilarning ko'rinish sohasi
31. C++ tilida butun va haqiqiy sonlar
32. C++ tili sintaksisi
33. C++ tili xizmatchi so'zlari
34. Turlarni boshqa turga keltirish funksiyalari
35. C++ tilida operatorlarning prioriteti
36. C++ tili standart funksiyalari
37. C++ tilida dasturning tuzilishi va shakli
38. O'zgaruvchilar va ifodalar
39. Amallar : inkrement, dikrement, sizeof, mantiqlik, razryadli, taqqoslash
40. Bir o'lchamli massiv
41. Ko'p o'lchamli massiv
42. O'qish -yozish potoklari (Sin, cout)
43. Statik massiv : o'rta, maksimal va minimal qiymatlarini hisoblash, ularni tartiblash
44. Operatorlar. Boshqaruvini uzatish operatorlari
45. C++ tilida matematik ifodalarning yozilishi
46. C++ tilida komenteriyalar
47. Lokal va global parametrlar
48. Rekursiv funksiyalar
49. Parametrli va parametrsiz funksiyalar
50. C++ tilida faylga yozishni amalga oshirish
51. Kvadratning tomoni a berilgan bo'lsa, uning perimetri p hisoblansin.
52. Kvadratning tomoni a berilganda, uning yuzasi s hisoblansin.
53. Tomonlari a va b bo'lgan to'g'ri to'rtburchak berilgan, uning yuzasi s va perimetri p hisoblansin
54. Aylana diametri d berilgan, uning uzunligi l hisoblansin. Bu yerda $\pi = 3,14$.
55. Kub qirrasining uzunligi a berilgan. Kubning hajmi v va uning sirtining yuzasi s

hisoblansin.

56. To'g'ri to'rtburchak shaklidagi parallelopipedning qirralari a , b , c berilgan. Uning hajmi v va sirtining yuzi s lar hisoblansin.
57. Berilgan r radiusga ko'ra doira aylanasining uzunligi l va uning yuzi s hisoblansin.
58. Ikkita a va b sonlar berilgan. Ularning o'rta arifmetigi hisoblansin.
59. Ikkita manfiy bo'lmagan a va b sonlar berilgan. Ularning o'rta geometrigi hisoblansin.
60. Ikkita nolga teng bo'lmagan a va b sonlari berilgan. Ularning yig'indisi, ayirmasi, ko'paytmasi va bo'linmasi hisoblansin.
61. Ikkita nolga teng bo'lmagan sonlar berilgan. Ularning yig'indisi, ayirmasi, ko'paytmasi va ularning bo'linmasining , moduli hisoblansin.
62. To'g'ri burchakli uchburchakning a va b katetlari berilgan. Uning gipotenuzasi c hamda perimetri p hisoblansin.
63. Radiuslari r_1 va r_2 bo'lgan ($r_1 > r_2$) hamda markazlari umumiy 2 ta doira berilgan. Birinchi doiraning yuzi s_1 , ikkinchi doiraning yuzi s_2 hamda tashqi doiraning ichida va ichki doiraning tashqarisida joylashgan yuza s_3 ($s_3 = s_1 - s_2$) hisoblansin.
64. Doiraning aylana uzunligi l berilgan. Uning radiusi r va yuzi s hisoblansin.
65. Doiraning yuzi s berilgan. Uning diametri d va aylana uzunligi l hisoblansin.
66. Sonlar o'qida berilgan X_1 va X_2 nuqtalar orasidagi masofa ($X_2 - X_1$) hisoblansin.
67. Sonlar o'qida A, B, C nuqtalar berilgan. AC va BC kesmalar uzunligi va ularning yig'indisi hisoblansin.
68. Sonlar o'qida A, B, C nuqtalar berilgan. (Bu yerda C nuqta A va B nuqtalar orasida yotadi deb hisoblanadi) AC va BC kesmalar uzunliklari hamda ularning ko'paytmasi hisoblansin.
69. To'g'ri burchakli to'rtburchakning qarama-qarshi uchlarining koordinatalari (x_1, y_1) va (x_2, y_2) lar berilgan. To'g'ri to'rtburchakning tomonlarini koordinata o'qlariga parallel deb hisoblanib, uning perimetri va yuzasi hisoblansin.
70. Tekislikda koordinatalari bilan berilgan ikki nuqta orasidagi masofa hisoblab topilsin.
71. Uchburchakning uchlarining koordinatalari berilgan. Ular (x_1, y_1) , (x_2, y_2) , (x_3, y_3) hisoblanadi. Ikki nuqta orasidagi masofani topish formulasi va Geron formulasidan foydalanib uning perimetri hamda yuzasi hisoblansin.
72. a va b o'zgaruvchilardagi qiymatlarni almashtiradigan programma tuzilsin.
73. a , b va c o'zgaruvchilarning qiymatlari quyidagicha almashtirilsin $a \rightarrow b$, $b \rightarrow c$, $c \rightarrow a$ va chop etilsin.
74. a , b va c o'zgaruvchilarning qiymatlari quyidagicha almashtirilsin $c \rightarrow b$, $b \rightarrow a$, $a \rightarrow c$ va chop etilsin.
75. x ning berilgan qiymatida $y = 3x^6 - 6x^3 - 7$ ning qiymati hisoblansin.
76. x ning berilgan qiymatida $y = 4(x - 3)^6 - 7(x - 3)^3 + 2$ ning qiymati hisoblansin.
77. a soni berilgan. a^2 , a^4 , a^5 ketma-ketlik uchun yordamchi o'zgaruvchilardan foydalanib 3 ta ko'paytirish amalini bajarib, a^5 hisoblansin va barcha a ning ko'rsatilgan darajalari chop etilsin.
78. a soni berilgan. a^2 , a^3 , a^5 , a^{10} , a^{15} ketma-ketlik uchun 2 ta yordamchi o'zgaruvchidan va 5 ta ko'paytirish amalidan foydalanib, a^{15} hisoblansin.

79. α burchak ($0 < \alpha < 360^\circ$) gradusda berilgan. Unga mos radian qiymat topilsin.
80. α burchak ($0 < \alpha < 2\pi$) radianda berilgan. Uning gradusdagi qiymati topilsin.
81. t temperatura Ferrenget birligida berilgan. Uning Sel'siy birligidagi qiymati topilsin. Bu yerda $t_c = (t_f - 32) * 5/9$.
82. t temperatura Sel'siy birligida berilgan. U Ferrenget birligiga o'tkazilsin va bu yerda $t_f = 9/5 * t_c + 32$.
83. Agar, x kg konfet a so'm tursa, 1 kg konfet va y kg konfet qancha turishi aniqlansin.
84. x kg shokolad a so'm, y kg iris b so'm turadi. 1 kg shokolad va 1 kg iris qancha turishini va shokolad, irisdan qancha qimmatligi aniqlansin.
85. Turg'un suvdagi qayiqning tezligi v km/soat hamda daryo oqimining tezligi u km/soat bo'lsin. ($u < v$). Qayiqning ko'ldagi harakat vaqti t_1 soat, daryo oqimiga qarshi harakati vaqti t_2 soat bo'lsa, qayiqning bosib o'tgan umumiy yo'li hisoblansin.
86. Birinchi avtomobilning tezligi v_1 , ikkinchisniki v_2 , ular orasidagi masofa s km. Avtomobillar bir-biridan uzoqlashayotgan bo'lsa, t vaqtdan keyingi ular orasidagi masofa hisoblansin.
87. Birinchi avtomobilning tezligi v_1 , ikkinchisniki v_2 , ular orasidagi masofa s km. Avtomobillar bir-biriga tomon harakatlanayotgan bo'lsa, t vaqtdan keyingi ular orasidagi masofa hisoblansin.
88. $ax + b = 0$ ($a \neq 0$) chiziqli tenglama koeffitsientlari berilgan bo'lsa, noma'lum x hisoblansin.
89. $ax^2 + bx + c = 0$ kvadrat tenglama a, b, c ($a \neq 0$) koeffitsientlari bilan berilgan bo'lsin. Uni musbat diskriminantga ega deb hisoblab, uning ildizlari hisoblansin.
90. $a_1, b_1, c_1, a_2, b_2, c_2$ koeffitsientlar bilan berilgan, quyidagi ko'rinishga ega bo'lgan
$$\begin{cases} a_1x + b_1y = c_1 \\ a_2x + b_2y = c_2 \end{cases}$$
 chiziqli tenglamalar sistemasining yechimi hisoblansin.
91. Masofa l sm berilgan. sm larni metr larga aylantiring va butun qismini toping.
92. Og'irlik m gramm da berilgan. Butunga bo'lish amalidan foydalanib, uning kg dagi ifodasi topilsin.
93. Fayl o'lchami baytda berilgan. Butunga bo'lish amali yordamida, uni kilobaytlardagi ifodasi topilsin.
94. a va b butun musbat sonlar berilgan bo'lib ular kesmalarining uzunliklari hisoblanadi va b kesma a kesmani to'liq qoplaydi yoki bir necha b uzunlikdagi kesmalar yig'indisi a kesмага teng deb hisoblanib, a kesma nechta b kesmadan tashkil topgani aniqlansin.
95. a va b butun musbat sonlar berilgan. Bir necha b kesma uzunliklari yig'indisining mumkin bo'lgan eng kattasiga teng a kesma uzunligi ajratilsin.
96. Ikki xonali son berilgan. Dastlab uning chap qismidagi raqami so'ngra o'ng qismidagi raqami alohida-alohida qilib chop etilsin. Bu ishni bajarishda butunga bo'lish va qoldiqni hisoblash amallaridan foydalanilsin.
97. Ikki xonali son berilgan, uning raqamlari yig'indisi va ko'paytmasi topilsin.
98. Ikki xonali son berilgan, uning raqamlari o'rnini almashtirish natijasida hosil bo'lgan son chop etilsin.
99. Uch xonali son berilgan. Butunga bo'lish amalidan bir marta foydalanib uning

birinchi raqami chop etilsin.

100. Uch xonali son berilgan, uning oxirgi va o'rtaxonasidagi raqamlari chop etilsin.
101. Uch xonali son berilgan, uning raqamlari yig'indisi chop etilsin.
102. Uch xonali son berilgan. U teskari tomondan o'qigandagi son chop etilsin.
103. Uch xonali son berilgan, uning birinchi raqamini oxiriga o'tkazishdan keyingi hosil bo'lgan son chop etilsin.
104. Uch xonali son berilgan. Uning o'ng tomonidagi 1-raqami olinib, chap tomonidan joylashtirilsin va hosil bo'lgan son chop etilsin.
105. Ush xonali son berilgan. Uning o'nlik va yuzlik xonalaridagi raqamlarini almashtirish natijasida hosil bo'lgan son chop etilsin.
106. Ush xonali son berilgan. Uning o'nlik va yuzlik xonalaridagi raqamlarini almashtirish natijasida hosil bo'lgan son chop etilsin.
107. 999 dan katta bo'lgan butun son berilgan. 1 marta butunga bo'lish va 1 marta qoldiqni topish amalidan foydalanib, shu sonning 100 lik xonasidagi raqam aniqlansin.
108. 9999 dan katta bo'lgan butun son berilgan. 1 marta butunga bo'lish va 1 marta qoldiqni topish amalidan foydalanib, shu sonning 1000 lik xonasidagi raqam aniqlansin.
109. Sutkaning n-sekundi bo'lsa, sutka boshidan buyon necha minut o'tganligi aniqlansin.
110. Sutkaning n-sekundi bo'lsa, sutka boshidan buyon necha soat o'tganligini aniqlansin.
111. Sutkaning n-sekundi bo'lsa, sutka boshidan buyon o'tgan sekundlar minutga aylantirilsin va oxirgi minutdan keyingi qolgan sekundlar aniqlansin.
112. Sutkaning n-sekundi bo'lsa, sutka boshidan buyon o'tgan sekundlar soatga aylantirilsin va oxirgi soatdan keyingi qolgan sekundlar aniqlansin.
113. Sutkaning n-sekundi bo'lsa, sutka boshidan buyon o'tgan sekundlarni soatga aylantirib, oxirgi soatdan keyingi minut aniqlansin.
114. 1 yanvar dushanba bo'lib, hafta kunlari quyidagicha nomerlangan bo'lsa; 0-yakshanba, 1-dushanba, 2-seshanba, 3-chorshanba, 4-payshanba, 5-juma, 6-shanba bo'lsa, berilgan K (1-365) butun sonini yilning kuni deb hisoblab u haftaning qaysi kuniga to'g'ri kelishi aniqlansin.
115. 1 yanvar payshanba bo'lib, hafta kunlari quyidagicha nomerlangan bo'lsa; 0-yakshanba, 1-dushanba, 2-seshanba, 3-chorshanba, 4-payshanba, 5-juma, 6-shanba bo'lsa, berilgan k (1-365) butun sonini yilning kuni deb hisoblab u haftaning qaysi kuniga to'g'ri kelishi aniqlansin.
116. 1 yanvar seshanba bo'lib, hafta kunlari quyidagicha nomerlangan bo'lsa; 1-dushanba, 2-seshanba, 3-chorshanba, 4-payshanba, 5-juma, 6-shanba, 7-yakshanba bo'lsa, berilgan k (1-365) butun sonini yilning kuni deb hisoblab u haftaning qaysi kuniga to'g'ri kelishi aniqlansin.
117. 1 yanvar shanba bo'lib, hafta kunlari quyidagicha nomerlangan bo'lsa; 1-dushanba, 2-seshanba, 3-chorshanba, 4-payshanba, 5-juma, 6-shanba, 7-yakshanba bo'lsa, berilgan k (1-365) butun sonini yilning kuni deb hisoblab u haftaning qaysi kuniga to'g'ri kelishi aniqlansin.

118. 1 yanvar n-hafta kunidan boshlanadi ($n \in [1;7]$), hafta kunlari quyidagicha nomerlangan bo'lsa; 1-dushanba, 2-seshanba, 3-chorshanba, 4-payshanba, 5-juma, 6-shanba, 7-yakshanba bo'lsa, berilgan k ($1 \leq k \leq 365$) butun sonini yilning kuni deb hisoblab u haftaning qaysi kuniga to'g'ri kelishi aniqlansin.
119. a, b, c butun musbat sonlar berilgan. a va b to'g'ri to'rtburchakning tomonlarini bildiradi. Shu $a \cdot b$ o'lchamli to'g'ri to'rtburchakga tomoni c ga teng bo'lgan nechta kvadrat joylashtirish mumkinligi va so'ngra to'g'ri to'rtburchakning qolgan qismi yuzasi aniqlansin.
120. Biror yil berilgan. Shu yilning qaysi asrga tegishli ekanligi aniqlansin, asr boshi quyidagicha hisoblanadi, misol: 20 asr 1900 yildan boshlanadi.
121. a butun soni berilgan. Uning musbatligi tekshirilsin.
122. a butun soni berilgan. Uning juftligi tekshirilsin.
123. a butun soni berilgan. Uning toqligi tekshirilsin.
124. a va b butun sonlari berilgan bo'lsa, ularni ($a > 2$ va $b \geq 3$) bo'lgan hol uchun tekshirilsin.
125. a va b butun sonlari berilgan bo'lsa, ularni ($a \geq 0$ va $b < -2$) bo'lgan hol uchun tekshirilsin.
126. a, b, c butun sonlari berilgan. Ular ($a < b < c$) holat uchun tekshirilsin.
127. a va b butun sonlar berilgan. Ularni har biri toq bo'lmagan hol uchun tekshirilsin.
128. a va b butun sonlar berilgan. Ularning hech bo'lmaganda bittasi toq ekanligi tekshirilsin.
129. a va b butun sonlar berilgan. Bu sonlardan biri toq ekanligi tekshirilsin.
130. a va b butun sonlar berilgan. Ularning bir xil juftlikka ega ekanligi tekshirilsin.
131. a, b, c butun sonlar berilgan. Ularning har biri musbat ekanligi tekshirilsin.
132. a, b, c butun sonlar berilgan. Ularning hech bo'lmaganda bittasi musbat ekanligi tekshirilsin.
133. a, b, c butun sonlar berilgan. Faqat ulardan bittasi musbatligi tekshirilsin.
134. a, b, c butun sonlar berilgan. Ulardan faqat ikkitasi bir vaqtda musbat ekanligi tekshirilsin.
135. Butun musbat son berilgan. Uning juftligi va ikki xonali ekanligi tekshirilsin.
136. Butun musbat son berilgan. Uning toqligi va uch xonali ekanligi tekshirilsin.
137. Berilgan uchta sondan juftliklar hosil qilingan. Shu juftliklarning hech bo'lmaganda bittasidagi sonlar o'zaro teng bo'lishi tekshirilsin.
138. Berilgan uchta butun sonlar orasidan olingan juftliklardan hech bo'lmaganda bittasidagi sonlar ishoralari bilan farq qilishi tekshirilsin.
139. Uch xonali son berilgan. Bu son raqamlarining har xil ekanligi tekshirilsin.
140. Uch xonali son berilgan. Uning raqamlari o'suvchi ketma-ketlik tashkil etishi tekshirilsin.
141. Uch xonali son berilgan. Uning raqamlari o'suvchi yoki kamayuvchi ketma-ketlik tashkil etishi tekshirilsin.
142. To'rt xonali son berilgan. Uni chapdan o'ngga va o'ngdan chapga

- o'qiganda bir xil o'qilishi tekshirilsin.
143. a, b, c sonlar berilgan ($a \neq 0$). Bu sonlarni kvadrat tenglama koeffitsientlari deb hisoblab shu kvadrat tenglamaning haqiqiy yechimga ega ekanligi tekshirilsin.
 144. x, y sonlari berilgan. Ularni koordinatalar deb hisoblab 2-chorakda yotishi tekshirilsin.
 145. x, y sonlari berilgan. Ularni koordinatalar deb hisoblab 4-chorakda yotishi tekshirilsin.
 146. x, y sonlari berilgan. Ularni koordinatalar deb hisoblab 2- yoki 3-chorakda yotishi tekshirilsin.
 147. x, y sonlari berilgan. Ularni koordinatalar deb hisoblab 1- yoki 3-chorakda yotishi tekshirilsin.
 148. Tekislikda nuqta x va y koordinatalari bilan berilgan. Shu nuqta (yuqori chap burchagi (x_1, y_1) , quyi o'ng burchagi (x_3, y_3)) bo'lgan, hamda tomonlari koordinata o'qlariga parallel) to'g'ri burchakli to'rtburchakning ichida yotishi yoki yotmasligi tekshirilsin.
 149. Shaxmat taxtasining quyi chap burchagini koordinata boshi deb hisoblab, (uning kataklari 1 dan 8 gacha butun sonlar bilan belgilangan), uning ikkala qismidan bittadan katakcha berilganda, shu katakchalar bir xil rangdaligi tekshirilsin.
 150. Shaxmat taxtasining quyi chap burchagini koordinata boshi deb hisoblab, (uning kataklari 1 dan 8 gacha butun sonlar bilan belgilangan), har ikkala taxtada mavjud shoxlarning bir yurishda boshqa taxtaga o'tishi tekshirilsin
 151. Butun son berilgan. Agar u musbat bo'lsa unga 1 qo'shilsin, aks holda o'zgarishsiz qoldirilsin. Olingan son chiqarilsin.
 152. Butun son berilgan. Agar u manfiy bo'lsa unga 1 qo'shilsin, aks holda 2 ayirib tashlansin. Olingan son chiqarilsin.
 153. Butun son berilgan. Agar u manfiy bo'lsa 2 ayirilsin, 0 ga teng bo'lsa 10 bilan almashtirilsin. Olingan son chiqarilsin.
 154. Uchta butun son berilgan. Ular orasidan musbatlari soni topilsin.
 155. Uchta butun son berilgan. Ular orasidan musbatlari va manfiylari soni topilsin.
 156. Ikkita son berilgan. Ulardan kattasi chiqarilsin.
 157. Ikkita son berilgan. Ulardan kichigining tartib raqami chiqarilsin.
 158. Ikkita son berilgan. Ulardan dastlab kattasi so'ngra kichigi navbat bilan chiqarilsin.
 159. Ikkita haqiqiy turga tegishli a va b o'zgaruvchilari berilgan. Ularning qiymatlari quyidagicha qayta taqsimlansin: a ga kichigi b ga kattasi, a va b larning yangi qiymatlari chiqarilsin.
 160. Ikkita butun tipga tegishli a va b o'zgaruvchilar berilgan. Agar ularning qiymatlari teng bo'lmasa har bir o'zgaruvchiga qiymatlar yig'indisi berilsin, aks holda har bir o'zgaruvchiga 0 qiymat qiymatlansin. O'zgaruvchilarning natijaviy qiymatlari chiqarilsin.
 161. Ikkita butun turga tegishli a va b o'zgaruvchilar berilgan. Agar ularning qiymatlari teng bo'lmasa har ikkala o'zgaruvchiga ham qiymatlarning kattasi qiymatlansin, aks holda har ikkala o'zgaruvchiga 0 qiymatlansin. O'zgaruvchilarning natijaviy qiymatlari chiqarilsin.
 162. Uchta son berilgan. Ular orasidan eng kichigi topilsin.

163. Uchta son berilgan. Ular orasidan o'rtachasi topilsin.
164. Uchta son berilgan. Ular orasidan dastlab eng kichigi so'ngra eng kattasi chiqarilsin.
165. Uchta son berilgan. Ularning ikkita kattasining yig'indisi chiqarilsin.
166. Haqiqiy tipga tegishli uchta a, b, c o'zgaruvchilar berilgan. Agar o'zgaruvchilarning qiymatlari o'sish tartibida joylashgan bo'lsa, ularning qiymatlari ikki marta oshirilsin, aks holda har bir o'zgaruvchining qiymati teskarisi bilan almashtirilsin. O'zgaruvchilarning natijaviy qiymatlari chiqarilsin.
167. Haqiqiy turga tegishli uchta a, b, c o'zgaruvchilar berilgan. Agar o'zgaruvchilarning qiymatlari o'sish yoki kamayish tartibida joylashgan bo'lsa, har birining qiymati ikki martaga oshirilsin, aks holda o'zgaruvchilarning qiymatlari qarama-qarshisi bilan almashtirilsin. O'zgaruvchilarning natijaviy qiymatlari chiqarilsin.
168. Uchta butun son berilgan. Ulardan bittasi qolgan ikkitasidan ishoralasi bilan farq qilsa, shu farq qiluvchi sonning tartib nomeri aniqlansin.
169. To'rtta butun son berilgan. Ulardan bittasi qolgan uchtasidan farq qilsa (juft toqligi bilan) bu sonning tartib nomeri chiqarilsin.
170. Sonlar o'qida uchta A, B, C nuqta joylashgan. B va C nuqtalarning A nuqtaga eng yaqini hamda A nuqta bilan yaqin nuqta orasidagi masofa aniqlanib chiqarilsin.
171. Tekislikda butun sonlardan iborat koordinataga ega nuqta joylashgan. Agar u koordinata boshi bilan ustma-ust tushsa 0 , Ox o'qida joylashgan bo'lsa 1 , Oy o'qida joylashgan bo'lsa 2 , aks holda 3 , qiymat chiqarilsin.
172. Ox va Oy o'qlarida yotmaydigan nuqta koordinatalari berilgan. Uning qaysi chorakka tegishli ekanligi aniqlansin.
173. To'g'ri to'rtburchakning 3 ta uchi butun sonlardan iborat koordinatalar bilan berilgan. Shu uchlar orasidagi tomonlar koordinata o'qlariga parallel bo'lsa, to'rtburchakning to'rtinchi uchining koordinatasi topilsin.
174. $1-7$ oralig'idagi butun son berilgan. Ushbu sonlar orasidan tanlanganiga mos keladigan hafta kuni nomi ekranga chiqarilsin.
175. Bahoni anglatadigan k soni berilgan. Agar $k=1$ bo'lsa "yomon", $k=2$ bo'lsa "qoniqarsiz", $k=3$ bo'lsa "qoniqarli", $k=4$ bo'lsa "yaxshi", $k=5$ bo'lsa "a'lo" so'zlaridan birini, agar k bu oraliqda yotmasa "xato" so'zi chop etilsin.
176. Arifmetik amallar quyidagi ko'rinishda nomerlangan. 1 "qo'shish", 2 "ayirish", 3 "ko'paytirish", 4 "bo'lish". n butun soni $1-4$ orasida berilgan bo'lib, a va b ($b \neq 0$) haqiqiy sonlari berilganda n ga mos keluvchi amal bajarilsin va natija chop etilsin.
177. Birliklar quyidagi ko'rinishda nomerlangan: 1-km , 2-m , 3-dm , 4-sm , 5-mm . Kesma uzunligi(haqiqiy son ko'rinishida) berilib, uning birligi tanlanganda metrdagi ifodasi topilsin.
178. Massa birliklari quyidagi ko'rinishda nomerlangan. 1-mg , 2-gr , 3-kg , 4-sentr , 5-tonna . Jism massasi berilganda va uning birligi tanlanganda kg dagi ifodasi topilsin.
179. To'g'ri sanani ifodalovchi kabisa bo'lmagan yilning (d) kuni va (m) oyi butun sonlar ko'rinishida berilgan. Berilgan sanadan oldingi sana topilsin va chop etilsin.
180. To'g'ri sanani ifodalovchi kabisa bo'lmagan yilning (d) kuni va (m) oyi butun sonlar ko'rinishida berilgan. Berilgan sanadan keyingi sana topilsin va chop

- etilsin.
181. Robot to'rtta yo'nalish bo'yicha harakatlanishi mumkin. ("1" Shimol, "2" G'arb, "3" Janub, "4" Sharq); va uch xil buyruqni qabul qila oladi, ya'ni 0 harakatni davom ettirish, 1-chapga burilish, -1 o'ngga burilish, c -robotning berilgan yo'nalishi bo'lib, n -unga uzatilgan buyruq bo'lsa, berilgan buyruqdan keyingi robotning holati chop etilsin.
 182. Sharq kalendarida yil nomlari uchun 60 yillik sikl qabul qilingan, u un ikki yillik sikllardan tashkil topgan bo'lib quyidagi ranglar bilan aniqlanadi. *Yashil, qizil, sariq, oq va qora.* Har bir ichki sikldagi yil, hayvonlar nomi bilan nomlangan (*sichqon, sigir, yo'lbars, quyon, ajdarho, ilon, ot, qo'y, maymun, tovuq, it va cho'chqa*). Yil nomeri berilganda yuqoridagilardan foydalanib uning nomi aniqlansin.
 183. To'g'ri sanani ifodalovchi ikkita d va m sonlari berilgan. Ularga mos keluvchi burj nomi aniqlansin: (*suvchi, baliq, qo'y, buzoq, egizaklar, qisqichbaqa, arslon, parizod, tarozi, chayon, yoy, tog' echkisi*). Burjlar quyidagicha aniqlanadi: 21 martdan 21 aprelgacha-suvchi va hokazo.
 184. k va n ($n > 0$) butun sonlar berilgan. n marta k soni chiqarilsin.
 185. a va b butun sonlar berilgan ($a > b$). a va b sonlari orasidagi sonlarni o'sish tartibida chiqarilsin (a va b sonlari ham kiradi) hamda shu sonlar miqdori (soni) n chiqarilsin.
 186. a va b butun sonlar berilgan ($a < b$). a va b sonlari orasidagi sonlarni kamayish tartibida chiqarilsin (a va b sonlari ham kiradi) hamda shu sonlar miqdori (soni) n chiqarilsin.
 187. 1 kg konfetning narxi haqiqiy sonda berilgan. 1,2,..., 10 kg konfetning bahosi chiqarilsin.
 188. 1 kg konfetning narxi berilgan. 0,1, 0,2, ..., 1 kg konfetning bahosi chiqarilsin
 189. 1 kg konfetning narxi berilgan. 1,2, 1,4, ..., 2 kg konfetning bahosi chiqarilsin
 190. 2 ta a va b butun sonlar berilgan. ($a < b$) a dan b gacha bo'lgan butun sonlar yig'indisi topilsin
 191. 2 ta a va b butun sonlar berilgan. ($a < b$) a dan b gacha bo'lgan sonlarning ko'paytmasi topilsin.
 192. a va b butun sonlar berilgan. ($a < b$) a dan b gacha bo'lgan sonlarning kvadratlar yig'indisi topilsin.
 193. a va n sonlari berilgan. Bitta sikldan foydalanib a sonining 1 dan n gacha bo'lgan darajalari chiqarilsin.
 194. a va b musbat sonlar berilgan ($a > b$). a uzunlikdagi kesmaga b uzunlikdagi kesmani mumkin qadar eng ko'p miqdorda joylashtirilganda, a kesmaning bo'sh (ortib) qolgan bo'lagi topilsin. Ko'paytirish va bo'lish operatsiyalaridan foydalanilmasin.
 195. a va b musbat son berilgan ($a > b$). a uzunlikdagi kesmaga b uzunlikdagi kesma mumkin qadar eng ko'p miqdorda joylashtirilgan bo'lsa, (Ko'paytirish va bo'lish operatsiyalaridan foydalanmay) a kesmaga joylashtirilgan b kesmalar soni aniqlansin.
 196. n va k musbat butun sonlari berilgan. Faqat qo'shish va ayirish operatsiyasidan foydalanib n ni k ga bo'lganda bo'linmaning butun hamda qoldiq qismi topilsin.

197. $n(n>0)$ butun son berilgan. Agar u 3 sonining darajasidan iborat bo'lsa true, aks holda false chiqarilsin.
198. $n(n>0)$ butun son berilgan. U 2 ning biror bir darajasidan iborat bo'lsa $n=2^k$, shu darajaning ko'rsatkichi k butun soni topilsin.
199. $n(n>0)$ butun son berilgan. n ikki factorial hisoblansin. Bu yerda $n!=n(n-2)(n-4)...$ (oxirgi ko'paytuvchi agar n -juft bo'lsa 2 ga, toq bo'lsa 1 ga teng.) Butun tip diapozonidan oshib ketishining oldini olish uchun bu ko'paytma natija haqiqiy tipli o'zgaruvchiga qiymatlanadi
200. $n(n>0)$ butun son berilgan. Kvadratdan ildiz chiqarish formulasidan foydalanmay kvadrati n dan katta eng kichik k soni topilsin. ($k^2>n$)
201. n butun son berilgan. Kvadratdan ildiz chiqarish formulasidan foydalanmay kvadrati n dan katta bo'lmagan eng katta butun k soni topilsin. ($k^2\leq n$)
202. Sportchi mashg'ulotni boshladi. U 1-kun 10 km masofani bosib o'tdi. Keyingi har kun bosib o'tilgan yo'l uzunligi oldingi kun bosib o'tilgan yo'ldan p foiz oshirildi. (p haqiqiy son. $0<p<50$) p berilgan bo'lsa, necha kundan keyin jami bosib o'tilgan masofa 40 kmdan oshishi aniqlansin va o'tgan kunlar soni k hamda jami bosib o'tilgan masofa S hisoblansin.
203. $n(n>1)$ butun son berilgan. Bo'linmaning butunga bo'lish va qoldiqni aniqlash operatsiyalaridan foydalanib, sonning o'ng tomonidan boshlab hamma raqamlari chiqarilsin. (birlik xonasidan boshlab)
204. $n(n>1)$ butun son berilgan. Butunga bo'lish va qoldiqni aniqlash operatsiyalaridan foydalanib, uning raqamlari yig'indisi va raqamlari soni chiqarilsin.
205. $n(n>0)$ butun son berilgan. Butunga bo'lish va qoldiqni aniqlash operatsiyalaridan foydalanib n sonining teskarisiga(o'ngdan chapga) o'qishdan hosil qilingan son chiqarilsin.
206. n butun son berilgan. Butunga bo'lish va qoldiqini aniqlash operatsiyalaridan foydalanib n sonida "2" raqami borligi aniqlansin. Agar bor bo'lsa "true" aks holda "false" chiqarilsin.
207. $n(n>0)$ butun son berilgan. Butunga bo'lish va qoldiqni aniqlash operatsiyalaridan foydalanib n sonida toq raqam borligi aniqlansin. Agar bor bo'lsa true, aks holda false chiqarilsin.
208. n ta haqiqiy son berilgan. Ularning yig'indisi topilsin.
209. n ta haqiqiy son berilgan. Ularning ko'paytmasi topilsin.
210. n ta haqiqiy sonlar berilgan. Ularning o'rta arifmetigi topilsin.
211. $n(n>0)$ butun son va n ta haqiqiy sonlardan iborat nabor berilgan. Berilgan nabordagi sonlar yig'indisi va ko'paytmasi chiqarilsin.
212. $n(n>0)$ butun son va n ta haqiqiy sonlardan iborat nabor berilgan. Berilgan nabordagi barcha sonlarning butun qismlari hamda butun qismlarining yig'indisi chiqarilsin.
213. $n(n>0)$ butun soni va n ta musbat haqiqiy sonlar nabori berilgan. Berilgan nabordagi barcha sonlarning kasr qismlari hamda hamma kasr qismlarining ko'paytmasi chiqarilsin.
214. $n(n>0)$ butun soni va n ta haqiqiy sondan iborat nabor berilgan. Berilgan nabordagi barcha sonlarning yaxlitlangan qiymati hamda ularning yig'indisi(yaxlitlangan qiymatlarining) chiqarilsin.
215. $n(n>0)$ butun soni va n ta butun sondan iborat nabor berilgan. Berilgan nabordagi hamma juft sonlar va ularning miqdori k chiqarilsin.

